



TOPRAK-KALA - THE CAPITAL OF ANCIENT KHOREZM

Idrisov Imalatdin

3rd year student of Karakalpak State University

Aytmanov Aybergen

3rd year student of Karakalpak State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10867832>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2024

Accepted: 24th March 2024

Online: 25th March 2024

KEYWORDS

Toprak-kala, Sergey Pavlovich Tolstov, Ayaz-kala, Mesopotamia, Babylon, Hermitage Museum, Moscow.

ABSTRACT

The article describes the historical significance of the Tuprak kala as a history of research, the role of unique finds from the Tuprak kala in the history of World Archaeology.

TUPROQ QAL'A - QADIMGI XORAZM POYTAXTI

Idrisov Imalatdin

Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi

Aytmanov Aybergen

Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2024

Accepted: 24th March 2024

Online: 25th March 2024

KEYWORDS

Tuproq qal'a, Sergey Pavlovich Tolstov, arxiv Ayoq qal'a, Mesopotamiya, Bobil, Ermitaj muzeyi, Moskva.

ABSTRACT

Maqolada Tuproq qal'aning tarixiy ahamiyati tadqiqot tarixi, Tuproq qal'adan topilgan noyob topilmalarning jahon arxeologiyasi tarixida tutgan o'rni bayon etilgan.

Qoraqalpog'iston hududi madaniy meroslarga boy tarixiy o'lkaligini 1937-yildan boshlangan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi har tarfdan isbotladi. Yurtimiz hududidagi har bitta yodgorlikning o'rganilish tarixi manashu ekspeditsiyaga borib taqaladi. Sergey Pavlovich Tolstov boshchiligidagi bu ekspeditsiya tariximizning ko'plab sirlarini ilm-fanga malum qildi. Ekspeditsiya davomidagi eng yirik ochilishlarning biri Qadimgi Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan Tuproq qal'aning topilishi bo'ldi. Yodgorlikning o'rganilish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, bunda S. P. Tolstovning xizmatlari qunli.

Tuproq qal'aning o'ziga hos o'rganilish tarixi bor. 1938-yildan e'tiboran hududimizni o'rganishga kirishkan ekspeditsiya a'zolari Beruniy tumani hududidagi Ayoq qal'a yodgorligini o'rganayotgan vaqtlarida S. P. Tolstov tepalikka chiqip uzoqlarga ko'z tashlaydi va biroz



olisroqta baland tepaliklarning mavjudligini payqaydi, yo'l boshchisidan so'rganida u bu oddiy tuproqlarning ostida ko'milib yotgan Tuproq shahar deb javob beradi. Birnecha kunlik kuzatishlardan so'ng bu maydonda eramizdan oldingi III asrga tegishli katta qo'rg'on bor ekanligi aniqlandi va S. P. Tolstov Tuproq qal'ada o'rganish ishlarini boshlaydi Ushbu vaqtdan e'tiboran deyarli 50 yil davomida qal'ada izlanishlar olib borilgan.

Tuproq qal'a - O'rta Osiyodagi eng ko'rkam yodgorliklardan biridir. Qal'adan topilgan bebaxo ma'lumotlar o'rta va yuqori o'qish dasturlaridan, arxitektura va san'at tarixi bo'yicha Markaziy Osiyo, umum jahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin olgan. Shuningdek eramizning boshida tuzilgan Kushon imperiyasi Markaziy Osiyo, umum jahon madaniyati tarixi bilan shug'ullanuvchi Jahon olimlari Tuproq qal'a manbalaridan foydalanib kelmoqda.

Ellikqal'a tumanida hududida joylashgan "Tuproqqal'a" yodgorligi miloddan avvalgi I-IV va VI asrlarga tegishli bo'lib u to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan. Shahar ikkita bo'limdan-qo'rg'on va saroydan iborat. Shahar oldindan tayyorlangan chizma reja bo'yicha qurilgan. Uning bilan shug'ullangan muhandislar guruhi vakillari o'zlarining avvalgi diniy an'ana, san'at, arxitektura - qurilish tarixi bilan yaqindan tanish bo'lgan. Unga shahar qurilishi ishlarida qadimgi Mesopotamiya ham Bobil uslublaridan ham foydalanilgan.

Antik davrdagi yozma manbalarga qaraganda shahar qurilishiga katta e'tibor berilib u maxsus "rejalovchi guruh" tarafidan ishga oshirilgan. U yerda eng ahamiyatli masalalar sifatida o'sha qurilish olib boriladigan hudud tozaligiga har taraflama o'ziga xos e'tibor qaratilgan. Buning uchun oddiy uslub qo'llanilgan: yerda, suvlarda, o'simlik olamida xastaliklarning bor yo'qligi o'sha yerning mahalliy hayvoni otib olinib, uning ichki a'zolarini tekshirishi siymosida aniqlangan. Ushbu talablarning hammasi o'rinlangan holda Tuproq qal'a qo'rg'oni qurilishi boshlangan. Qal'aning rejasi meridian bo'yicha cho'zilib yotgan geometrik to'g'ri to'rtburchak shakldan iborat bo'lib, ikkita qator mustahkam qo'rg'on devorlari bilan qurshalgan. Uning sirtidan atrofi aylantira ancha teran bo'lgan qandak qazilgan. Qandaktan qal'aga faqatgina uning janub tarafidagi darvozasi oldidagi osma ko'prik orqali o'tilgan. Bu darvozaning ikkita tarafida qo'sh minoralari bo'lgan. Bundan tashqari, qo'rg'onning har burchaklarida ham har 10-15 metr oraliqta sirtqi tarafidan himoya minoralari bilan mustahkamlangan. Tuproqqal'a shahri to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'lib, 17,5 ga yer maydoniga teng, unda 2000-2500 kishi istiqomat qilgan. Shahar gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Shaharning ichida joylashgan xonadonlarning orasidagi yo'laklar juda tor bo'lib, g'ishtlarga tushirilgan tamg'alar orqali yashagan jamoalarning qaysi uruqqa mansubligini aniqlash mumkin bo'lgan. Hayratlanarlisi shuki, tashqi devorlarning qalinligi 7-9 metrga teng bo'lgan. Shaharni arxeologik qazish jarayonida 100ga yaqin turar joy va 8ta saroy aniqlangan. Zallar bo'rtma naqshlar va rangli xaykallar bilan jixozlangan. "Tuproqqal'a" eramizning I-IV asrlarida Xorazm davlatining poytaxti hisoblangan. Shahar tarixi hamon o'rganilmoqda. Arxeologik yodgorlikka chiqish uchun zinapoyalar barpo etilgan. Chunki, loysimon yo'laklar ko'tarilishga noqulayliklar tug'dirgan.

¹Arxeologlar saroyini ko'p yillik tadqiqot ishlari natijasi o'laroq juda katta yutuqlarga erishishdi. Har xil vazifani bajaruvchi yuzga yaqin saroy xonalari topildi. Ularning ko'pchiligi shon-shuxrat uchun qurilgan edi.

¹ 2. В.Н.Ягодин "Эйемги мәденият ғәзийнелери" Нөкис - 1979



Tuproq qal'a saroyi katta zal va 120 ta xonalardan turadi. Saroy o'zining tuzilishi bo'yicha shahar ichidagi shaharni eslatadi. Ilmda "Balanddagi saroy" deb nomlanadigan bu qurilish ham ikki qator qalin devorlar bilan himoyalaniib unga mustahkam darvoza o'rnatilgan. Milodiy II-IV asrlarga tegishli qal'aning bu qismining xajmi 80 x80 metr bo'lgan maxsus tayyorlangan baland maydoncha ustiga qurilgan. Faqat balantligining o'zi 14, 5 metrni tashkil qiladigan maydoncha katta o'lchamdagi xom g'ishtlardan iborat. U "yo'qlarargi saroy" ning asosi xizmatini bajargan. Yerdan 30 metrlarcha balantlikta joylashgan "Balanddagi saroy" darvozasiga qiya qilib tushirilgan yo'l yordamida chiqiladi. Saroy hovlisiga olebastradan ishlangan haykallar o'rnatilgan. 1946-yildan boshlab 30 yildan oshiq vaqt olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Tuproq qal'adan oldin ilm-fanda noma'lum yangi me'moriy qurilishlar, haykallar, rassomchilik san'ati na'munalari, arxiv ochildi. Shu jumladan 21 mingdan oshiq kulol idishlar bilan ularning parchalari topildi. Qal'adan zargarlik buyumlarining turli shakllari ham o'sha davrda muomalada bo'lgan tangalar topib o'rganildi. Topilgan bitta kumush, 140 ta mis tangalar shaharda mablag' muomalasi bo'lganligidan darak berib qo'ymasdan ularning ko'pchiligining ushbu yerda quyilganligini ko'rsatib turadi. Shuning uchun ham S.P.Tolstov Tuproq qal'ani "behisob tangalar muzeyi" deb nomlashni joiz ko'rgan bo'lsa kerak.

Tuproq qal'adan topilgan antik davrlarga tegishli tarixiy durdonalar Moskvadagi sharq madaniyati muzeyi bilan Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyining zallarida saqlanmoqta.

Qal'aning boy tarixiy, madaniy manbalari orasida xalqimizning urf-odat, an'analariga, san'atiga xos ko'plab ma'lumotlarni uchratsa bo'ladi. Masalan:shahardan topilgan tangalar bilan devorlardagi tasvirlardagi podshohlarning boshidagi tojlar bilan qirolichalarning quloqlaridagi taqinchoqlar qoraqalpoq qizlarining "saukele" ziraklarini eslatishini S. P. Tolstov aytib o'tgan edilar.

Izlanishlar davomidagi eng baholi topilmalardan biri qal'aning janubi-sharqiy tarafi ikkinchi qavatida Xorazm podshohlarning arxivi topilishi bo'ldi. 3 bo'limdan iborat arxivdan 100 ga yaqin hujjatlar topildi. Shundan 18 tasi yog'ochga, ko'pchiligi teriga yozilgan, ularni 8tasi yaxshi saqlangan. 100ga yaqin hujjatdan atigi 26 tasini o'qishga muvassar bo'lgan.

Tuproqqal'a arxivini 2 guruhga bo'lish mumkin bo'ldi. 1-guruh hujjatlari soliq ishlari bilan bog'liq bo'lib, ular yog'ochga yozilgan. 2-guruh hujjatlar (teriga yozilganlari) xo'jalik hujjatlari bo'lib, ularga podsho xazinasiga tushgan jarimalarning nomi, miqdori hamda qaerdan kelganligi yozib qo'yilgan. Yog'ochga yozilgan hujjatlarda "qul", "xizmatkor", "o'g'ilning qullari", "o'g'ilning hizmatkorlari" kabi so'zlar yozilgan. "Ozod" so'zlari ham uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Tuproq qal'a haqiqatdan noyob yodgorlik bo'lib, u qadimgi Xorazm davlatining III-IV asrlardagi poytaxti bo'lgan. Bu shahar antik davr shahar madaniyatining yorqin timsolidir. Tuproq qal'adan topilgan har bir topilma tariximizning eng noyob qirralarini o'zida aks ettirgan.

References:

1. Курбонбой Собиров "Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоатлари" Тошкент - 2009
2. В.Н.Ягодин "Эйдемги мәденият ғәзийнелери" Нөкис - 1979



3. Ғ.Хожаниязов, Ж.Хақимниязов "Қаралалпақстанның әжайип жети естелиги"
Нөкис -2004 [11-29-betler]